

# Yan Amos Komenskiyning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi

Mardona Ravshanbek-qizi Solijonova

Gulsanam Abdullayeva

Umida Nabijonova

Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlari va ta'lim tizimiga qo'shgan hissalarini tahlil qilinadi. Uning didaktik tushunchalari va pedagogika fanini shakllantirishdagi o'rni, uning g'oyalarining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Komenskiyning nazariy merosi va uning bugungi kundagi dolzarbligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, pedagogika, didaktika, ona maktabi, xalq maktabi, gimnaziya, akademiya, "Buyuk didaktika", ko'rsatmalilik, onglik, izchillik, zamonaviy ta'lim

## Contribution of Jan Amos Komensky to the education system

Mardona Ravshanbek-kyzi Solijonova

Gulsanam Abdullayeva

Umida Nabijonova

Scientific advisor: M. Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

**Abstract:** This article analyzes the pedagogical views and contributions of Jan Amos Komensky to the education system. His didactic concepts and role in the formation of the discipline of pedagogy, the significance of his ideas in the modern education system are considered on a scientific basis. Komensky's theoretical heritage and its relevance today are described.

**Keywords:** education, pedagogy, didactics, native school, folk school, gymnasium, academy, "Great didactics", instructionality, consciousness, consistency, modern education

Chexoslovakiyalik gumanist-pedagog Yan Amos Komenskiy pedagogika sohasining poydevorini qo'ygan shaxs sifatida tanilgan bo'lib, uning keyingi rivojlanish yo'llarini ko'rsatib bergan. U o'zining kamtarona hayotini hamda pedagogik faoliyatini bolalarga ta'lim berishga bag'ishlagan buyuk mutaffakirdir.

Buyuk chex olimi 1592-yil 28-martda Janubiy Moraviyada "Chex qardoshlari" diniy uyushmasiga mansub oddiy tegirmonchi oilasida dunyoga kelgan. Dastlabki bilimlarni qardoshlik maktabida olgan. Uyushmaga a'zoliqi sababli ko'plab ta'qiblarga uchragan, tog' va o'rmonlarda yashirinib yashashga majbur bo'lgan. 1608-1610-yillarda lotin maktabida, so'ng Xerborn akademiyasida hamda Geydelberg universitetida tahsil olgan. Ta'qiblar natijasida Polshaning Lesko shahriga keladi, u yerda gimnaziya tashkil etadi. 1631-yillarda "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi", 1632-yilda esa "Buyuk didaktika", "Onalar maktabi" kabi darslik va qo'llanmalar ishlab chiqqan[1]. Yillar davomida o'z ustida "hamma narsani bilish, hammaga bilim berish" shiori ostida izlanishlar olib boradi. Komenskiy 1650-yillarda Vengriyaga keladi va pedagogika taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lgan "Pansofiya maktabi" (1651), "Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari" (1653) kitoblarini yozgan. Bir necha yildan so'ng 1658-yilda o'quv jarayonida rasmlardan foydalanishning eng samarali natijalarga boy "Hislar vositasida idrok qilinadigan narsalar tasviri" asarini yaratdi [2].

Komenskiy umumta'lim deganda faqat har bir bolaning emas, balki ayol-qizlarning ham ta'lim olishini nazarda tutadi. U boshqa olim-pedagoglardan farqli ravishda bolaning tug'ilgan boshlab egallagan qobiliyatlariga Xudoning tuhfasini deb qaradi. Hamda bu qobiliyat faqatgina tarbiya jarayonida rivojlanib borishini uqtirdi. Komenskiy insonning rivojlanishida tarbiyaning o'rni katta ahamiyatga ega ekanligiga ishonardi va tarbiya orqali har qanday bolani axloqli, ma'lumotli hamda yetuk bo'lib ulg'ayishi mumkin degan fikrni ilgari surdi. Shuningdek, bolani yoshlik chog'idan ham ma'nan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni talab etdi. O'z asarlarida bolaga tarbiya berishda inson tabiatiga ya'ni tug'ma belgilarga e'tibor qaratadi, bunga asoslanib, bolaning yosh davrlarini oraliq'i 6 yildan bo'lgan 4 davrga ajratadi. Bu davr bolalarni o'qitish yoshini ham belgilab beradi [3].

|                 |                                 |                |
|-----------------|---------------------------------|----------------|
| Go'daklik davri | <i>tug'ilgandan 6 yoshgacha</i> | Onalar maktabi |
| Bolalik davri   | <i>6-12 yosh</i>                | Xalq maktabi   |
| O'smirlik davri | <i>12-18 yosh</i>               | Gimnaziya      |
| Yetuklik davri  | <i>18-24 yosh</i>               | Akademiya      |

Yan Amos Komenskiy bolalarni 6 yoshigacha onalar maktabida tarbiyalanishini taklif etadi. Uning fikricha, bolalar onalaridan boshlang'ich ma'lumotlarni, shu jumladan, suv, havo, tabiat hodisalari, o'simliklar, hayvonlar va hokazolar o'rganishi lozim. Bolalarni kichikligidan mehnatga, mehnatsevarlikka, ozodalikka, kattalarni hurmat qilishga, adolatlilikka, insonparvarlikka maktab yoshiga yetmasdanoq o'rgatish zarur degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

Bolalarga ta'lim berishni ularning yoshi, bilim darajasi, ruhiy holatiga uyg'un holda tashkil etish Komenskiy pedagogikasi mohiyati hisoblanadi. Uning ushbu qarashlari haqida "Buyuk didaktika" asarida yoritilgan. U barcha maktablar uchun umumiy bo'lgan tizimi bo'lishini, bolalarni qaysi toifaga mansubligi, ota-onalarining

kimligidan qat'iy nazar ona tilidagi maktablar bolalar uchun umumiy va majburiy ekanligini ta'kidlagan [4].

Uning fikrlariga ko'ra, tarbiyaning uch bosqichi va uch vazifasi mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat:

|                 |                                            |
|-----------------|--------------------------------------------|
| Aqliy tarbiya   | O'zini va tevarak atrofidagi olamni bilish |
| Axloqiy tarbiya | O'z-o'zini bilish                          |
| Diniy tarbiya   | Xudoni tanishga intilish                   |

Komenskiy birinchi vazifani bajarilishiga katta e'tibor qaratgani uning o'z davridagi pedagoglardan farqi edi. Hamda u tarbiyaga yuksak baho berdi. Inson tarbiya tufayligina inson bo'la oladi, u har qanday bolani odam qilishi mumkin, deya aytib o'tgan.

Qo'shimcha qilib aytganda, didaktik tamoyillar sifatida ko'rsatmalilik, ongliklik, izchillik nazariy jihatdan asoslab berilgan. Birinchi bo'lib, ko'rsatmalilikni tahlil qilgan holda, mumkin bo'lgan narsanki o'zini, mumkin bo'lmaganlarini esa rasmlardan foydalanib ko'rsatish kerakligini aytadi. O'zini davrigacha bo'lgan ko'rsatmalilik tamoyiliga oid bilimlarni birlashtirdi, kengaytirdi.

U o'qitishdagi dogmatik usulga qarshi chiqdi va ongliklik tamoyilini ilgari surdi. U ta'limning tizimli bo'lishini talab qilgan. Shuningdek, ta'limda izchillik tamoyili ham muhim ahamiyat kasb etgan. Didaktik tamoyilda o'quvchilarning kuchi yetadigan narsani o'qitish kerakligini aytib, g'oyalarini ilgari surgan. O'qitilayotgan materiallarni o'vchilar mustahkam va asosli ravishda o'zlashtirishiga e'tibor qaratgan. O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilish iste'dodini shakllantirish, nutqining o'sishi va ravonligi, ovoz chiqarib takrorlashning roli muhimligini ta'kidlaydi [5].

Pedagogika sohasidagi birinchi buyuk asar sifatida tan olingan "Buyuk didaktika" asarini muallif "hayot didaktikasi" deb atagan edi.

"Didaktika" atamasi qadimgi yunoncha *didaktikos* - "o'rgatuvchi", "ta'lim beruvchi" ma'nolarini bildiradi. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanuvchi pedagogikaning bir tarmog'i sifatida xizmat qiladi. Ushbu termin ilk marotaba Yevropada XVII asrda ta'lim jarayoni va o'qitish jarayoniga oid asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlangan. Dastlab nemis pedagogi V.Ratke fanga kiritgani haqida ma'lumotlar mavjud. Shu jumladan, chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida bolalar va o'smirlarga ta'lim berish, ularni o'qitish, ma'lumotli qilishning didaktik jihatlarini tahlil qilgan [6].

Komenskiy bu asarni yozishidan asosiy maqsadi "hammaga hamma narsani to'liq o'rgatish" yoki "hammaga hamma narsani butun holida o'rgatish"dan iborat edi. Uning aytishicha ko'ra, ushbu jumlar ostida shunday zamonaviy mohiyat bor edi, faqat bilimli odamgina chinakam inson bo'la oladi. Bu yondashuv har bir insoniyat qalbida ezgulik borligini va uni ta'lim orqali rivojlantirish mumkin ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shu bilan bir qatorda, "Buyuk didaktika" har bir o'quvchi

uchun qulay o'qitish jarayonida yuqori natijani qo'lga kiritish yo'l-yo'riqlarini ham taqdim etadi.

Jahon ta'lim tizimiga nazar solinsa, Yan Amos Komenskiy tarixda birinchi bo'lib ta'limning sinf-dars tizimini ishlab chiqqani ma'lum bo'ladi. Ta'lim berish jarayon davomiyligini, o'quvchilarning soni hamda yoshini ham belgilab bergan. Shuningdek, u darsni reja asosida tizimlashtirish, o'quv yili davomiyligi, chorak va o'qish kunlarga ajratish yo'llarini ko'rsatdi. O'quv soatlari, ta'tillarning muddatlarini ham belgilab berdi [7].

Yan Amos Komenskiy ilk bora tarbiyaning tabiat bilan uyg'un holda o'rganishning ham nazariy ham amaliy taraflama tahlil qildi. U maktabdan tashqarida tabiatdan ham o'rganishni tavsiya qilgan. Uning fikriga ko'ra, agar bola maktabda ta'lim olayotgan bo'lsa, o'rganish jarayoni maktabdan tashqariga, tabiatga chiqqanda ham davom etishi lozim. Olim dunyoviy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'quvchilarga atrof-muhitdagi barcha narsalar bilan bevosita muloqotga kirishish imkoniyatini yaratish, bilimlarni esa bolalarning ehtiyojlari va ularning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tizimlashtirishni qo'lga kiritgan [8].

Komenskiy o'z asarida zamonaviy Amerika ta'lim tizimiga o'xshash maktab tizimini tasvirlagan. Bu tizim bog'cha, boshlang'ich maktab, o'rta maktab, kollej va universitet bosqichlarini o'z ichiga oladi. Kitobda ilgari surilgan pansofizm, ya'ni "umumiy bilim" falsafasi, ta'limning asosiy maqsadini ochib beradi: barcha narsalarni har bir odamga har tomonlama o'rgatish. Komenskiy ta'lim orqali insoniyatning hamjihatlikda yashashi mumkinligiga ishongan. Shuningdek, u bolalarda tabiiy ravishda bilimga va ezgulikka intilish mavjudligiga e'tibor qaratgan.

Aristotel va Platonning ilm yo'lidan borgan Komenskiy donishmandlik, mardlik, adolatlikni eng asosiy xislatlar deb biladi. Barcha narsalar haqida to'g'ri, rost fikr yuritish ushbu fazilatlarning asosi. Bundan tashqari bolalarda kamtarlikshafqatlik, ozodalik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalash axloqiy tarbiyaning asosi deb biladi. Bu bilan birgalikda intizomni ham ahamiyati kattaligini ko'rsatdi. Bunga asos qilib chexlardagi bir maqol keltirilsa mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni "Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondur".

Uning yana bir katta xizmati shundaki, o'rta asrlardagi kaltak bilan jazolash va intizom o'rnatishga qarshi chiqib, bolalarga insoniy muomalada bo'lishlikni talab qildi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrining eng oldi ilm dargohlarida tahsil olgan bo'lib, uning dunyoqarashining shakllanishiga bir nechta taniqli olimlar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Misol uchun,

- Iogan Genrix Alsted uning Gerborn akademiyasidagi ustози bo'li, Alsted ta'sirida Komenskiyning "Pansofiya" (umumiy bilim) g'oyasi shakllangan.

• Yana bir buyuk mutaffakir Volfgang Ratkening ta'limni isloh qilish borasidagi maqolalari Yan Amosga o'z ta'sir o'kazmay qo'ymagan.

• Villiam Beyt, irlandiyalik ushbu olimning tillarni o'rgatish bo'yicha yozgan asarlari Komenskiyning "Tillar eshigi ochildi" asarini yozishiga turtki bo'lgan.

Yan Amos Komenskiy zamonaviy pedagogika fanining otasi hisoblanadi. Uning "Pansofiya" falsafasi va "Buyuk didaktika" asaridagi g'oyalari keying asrlarda yashagan buyuk pedagoglar uvhun poydevor bo'liob xizmat qildi. Uning izdoshlari haqida quyida keltirilgan:

• Jan Jak Russo (1712-1778). Komenskiyning tabiatga muvofiqlik tamoyilini yangi bosqichga olib chiqdi. u bolani kattalarning nusxasi emas, balki ular ham o'ziga xos dunyo deb qarashni va unga tabbiy erkinlik berishni targ'ib qildi.

• Iogan Genrix Pestalotssi (1746-182). Komenskiyning ko'rsatmalilik tamoyilini rivojlantirib, uni boshlang'ich ta'limning asosi deb belgiladi. U ta'limda hissiy qabul qilish va amaliy tajriba uyg'unligini isbotlagan.

• Iogan Fridrix Gerbart (1776-1841) Komenskiy boshlab bergan dars tizimini ilmiy jihatdan qat'iy didaktik bosqichlarga ajratgan: bayon qilish, bog'lash, tizimlashtirish, qo'llash.

• Fridrix Frebel (1782-1852). Komenskiyning "Ona maktabi" asaridagi go'daklik davridagi tarbiya haqidagi maslahatlarni, taklif-talablarni amaliyotga tatbiq etdi. Shuningdek, dunyodagi dastlabki bolalar bog'chasiga asos soldi.

• Konstantin Ushinskiy (1824-1870). Komenskiyning ta'limni ona tilida olib borish tamoyilini millay maktablar yaratish bilan to'ldirgan [9].

Shunday qilib, mashhur slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy butun dunyoda pedagogika fanining shakllanishiga katta hissa qo'shgan buyuk olim sifatida tarixda qoldi. U nafaqat maktab tizimini rivojlantirdi, balki ta'limni ilmiy asosda tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Shu sababli ko'plab G'arbiy Yevropa davlatlari uni maktab tizimini yaxshilash uchun taklif qilganlar.

Komenskiyning darsliklari juda mashhur bo'lib, ko'plab tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Uning asarlari qariyb 150 yil[10] davomida boshlang'ich ta'limda asosiy darslik sifatida foydalanilgan. Bu esa uning pedagogik qarashlari naqadar puxta va hayotiy bo'lganini ko'rsatadi.

Mashhur nemis olimi Leybnits ta'kidlaganidek, Kopernik falsafada qanday buyuk o'rin tutgan bo'lsa, Komenskiy ham pedagogika sohasida shunday ahamiyatga ega bo'lgan.

Komenskiyning pedagogikasi ilmiy asosga ega bo'lib, jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissa hisoblanadi. Eng muhimi, uning qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Komenskiyning tarbiyani inson hayotini yaxshilash, jamiyatda uyg'unlik va hamjihatlikka erishish vositasi sifatida ko'rgan. Bugungi kunda ham uning pedagogik

qarashlari barhayot bo'lib, zamonaviy olimlar va ustozlar uning boshlagan ishlarini davom ettirib, pedagogika fanining rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yan Amos Komenskiy, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (Ya-harfi). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o 'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.
11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. Technical Science Integrated Research, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(6), 8-11.

13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. Science and Education, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. Science and Education, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique.-2022.-S, 7128-7131.
25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 216-222.
26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.